

Geografiya ta'limi samaradorligini oshirishda interfaol dasturiy vositalarning ahamiyati

F.S.Meliboyeva

QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

kafedrası katta o'qituvchisi

Yo.A.Najmiddinova - talaba

Annotatsiya: *Maqolada ta'limda interfaol dasturiy vositalardan foydalanishning samaradorligi, interfaol texnologiyalarning asosiy konsepsiyasi, geografiyadan interfaol dasturiy vositalarni yaratishda qo'llanilayotgan va qo'llanilishi zarur bo'lgan elektron resurslar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, interfaol dasturiy vosita, elektron majmua, elektron resurslar, tashkiliy–boshqaruv, tushuntirish motivatsion, kognitiv, texnologik, kreativ, virtual laboratoriya, animatsiya, virtual tajriba tizimi.*

O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining 2002-yil 30-mayda qabul qilgan (PF-3080-son) “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida”gi Farmonida kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish hamda joriy etishga doir ustuvor vazifalar aniq ko'rsatilgan. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini axborotlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim tizimini ketma-ket va bosqichma-bosqich axborotlashtirishdan *asosiy maqsad* quyidagilardan iborat:

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy qilish mexanizmini ishlab chiqish;
- o'qitish jarayonining axborotlashgan tizimini yaratish, uni zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarish tizimini tashkil etish.

Ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- yangi axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy-texnik bazasini yaratish;
- o'quv jarayoni uchun yangi axborotlashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;
- talabalarning zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- ta'lim-tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Faol va interfaol ta'lim texnologiyalari reproduktivdan farqli ravishda o'qitishni mahsuldor ijodiy faoliyat asosida tashkil etishni talab etadi. Ularning har biri mohiyat jihatdan bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonini boshqarish vositasida yuzaga chiqadi. Faol texnologiyalar tizimida muammoli vaziyatlarni o'qituvchi va talaba hamkorlikda tahlil qiladi va hal etadi. Interfaol texnologiyalarda muammoning yechimini topish vaziyat tahlili va o'yinli loyihalash jarayonida o'qituvchi va butun guruh a'zolarining faol ishtirokida jamoaviy hal etadi. Agar muammoli vaziyatni hal etishda butun auditoriya ishtiroki ta'minlansa, faol texnologiya interfaolga aylanadi.

Ma'lumki, interfaollik obyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xarakteri va darajasini yorituvchi tushuncha bo'lib, ko'proq informatika nazariyasi, informatika va dasturlash sohalarida, shuningdek, telekommunikatsiya, sotsiologiya, sanoat dizayni va boshqa tizimlarda qo'llanadi. Interfaollik tizimlarni tashkil etish prinsipi bo'lib, bu tizim elementlari orasida axborot almashishga erishish maqsadini ko'zlaydi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari *interfaol* dasturiy vositalarni yaratish, saqlash, yetkazish, qidirish kabi jarayonlarni optimallashtirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Hozirda ta'lim muassasalarida elektron shaklda turli pedagogik axborot-ta'lim resurslari yaratilgan, ammo ulardan foydalanishning tashkiliy asoslarini yaratish borasidagi tadqiqotlar yetarli deb bo'lmaydi. Ta'lim oluvchilarning zamonaviy talablarga mos bilim olishini ta'minlash maqsadida barcha o'quv muassasalari ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, geografiyadan interfaol mashg'ulotlar va laboratoriya mashg'ulotlari yordamida har qanday murakkab hodisa yoki jarayonni kuzatish imkoni bo'lmagan tajribalarni ko'rsatish va o'quvchilarga tushuntirish

mumkin.

Ta'lim oluvchilarning fan-texnikaning so'nggi yutuqlaridan amaliy faoliyatlarida bevosita samarali foydalanishlarini nazarda tutgan holda interfaol dasturiy vositalar yordamida ta'lim jarayonini integratsiyalab o'qitishning o'ziga xos shart-sharoitlari va ahamiyatini tahlil qilish zarur.

Geografiya ta'limi jarayonini interfaol dasturiy vositalar yordamida tashkil etishning o'ziga xos ijobiy tomonlari mavjud. Pedagog interfaol dasturiy vositalar yordamida o'quv materialiga ishlov berishi natijasida o'quv materiali bo'yicha axborotlarni qabul qilish, ularni atroflicha mustahkamlash va sinash yagona tizimga aylanadi. Mavzularni to'liq o'zlashtirish uchun psixologik, pedagogik, didaktik, uslubiy jihatdan zamin yaratiladi. Geografiya ta'limi jarayonini interfaol dasturiy vositalar yordamida asosli loyihalash ilm orqali ta'lim va ilmiy tayyorgarlikni muvofiqlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik imkoniyatlarini rivojlantirish darajasini orttirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Interfaol dasturiy vositalarni qo'llash asosida:

- ta'lim oluvchilarning axborotlarni qabul qilish va qo'llash malakalari oshadi;
- amaliy faoliyatida axborotlarni o'ziga xos tushunish va qo'llash imkoniyatlari kengayadi;
- jahon ommaviy axborot vositalari bilan erkin muloqoti ta'minlanadi.

Geografiya ta'limida interfaol dasturiy vositalarni yaratishda qo'llanilayotgan va qo'llanilishi zarur bo'lgan elektron resurs manbalariga: o'quv materiallari (darslik, qo'llanma, audiodarslar, videofilmlar, nazorat materiallari va boshqalar), audiodisklar, videokassetalar va videokliplar, telefon, radio va televideniye, elektron aloqa, kompyuterli ta'lim dasturlari, teleanjumanlar (audio va videoanjumanlar, audiografik anjumanlar va hokazolar) kiradi.

Talabalar dasturga kiruvchi obyektlardan o'zlariga tegishli axborot manbaini yaratish, ularni to'ldirish, ta'lim olishning minimum doirasida uni o'zlashtirish, ayrim mavzu va kursning ma'lum bo'lagini chuqur darajada o'rganish, interaktiv elementlardan foydalangan holda bilimni testlar orqali tekshirish, turli xil tajribalarni

o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim berishda foydalaniladigan kompyuter vositalari ular bajaradigan funksional vazifalar nuqtayi nazaridan turlicha bo'lishi mumkin:

- taqdimotlar, ya'ni animatsiya, audio va videolavhalar, interaktiv elementlarni o'zida mujassamlashtirishi mumkin bo'lgan elektron diafilmlar;
- oddiy ma'lumot-axborot nashrlari, ya'ni ensiklopediya, lug'at, ma'lumotnomalarning o'xshashi bo'lgan elektron ensiklopediyalar;
- misol va masalalar, mashqlar to'plami, ya'ni didaktik materiallar;
- ta'lim oluvchiga "virtual laboratoriya"da tajriba va sinovlar o'tkazish imkoniyatini beradigan kompleks dasturlar, ya'ni virtual tajriba tizimi.

Qayd etish kerakki, bunday dasturlarning afzalligi ularning o'quvchiga xavfsizligi va o'tkazilish vaqti nuqtayi nazaridan real holatda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan tajribalarni o'tkazish imkoniyatining mavjudligidir. Ayni paytda bunday turdagi dasturlarning kamchiligi ularga joylashgan modellarning tabiatan cheklanganligi bo'is o'quvchi o'z tajribasini o'tkazish jarayonida ular chegarasidan tashqariga chiqq olmasligidir.

Adabiyotlarda ularning ilgaridan ma'lum barcha vositalardan ajratib turuvchi tavsiflarining faqat pedagogik dasturiy vositalarga nisbatan imkoniyatlarini ko'rsatib o'tiladi:

- foydalanuvchining individual ish sur'atini ta'minlash;
- imitatsiyali-modellovchi faoliyatni bajarish;
- ham real, ham ekranda o'z aksini topgan obyektlar va jarayonlarni boshqarish;
- interaktiv rejimda ishlash;
- o'rganilayotgan obyektlar, hodisalar va jarayonlarni turli vizuallashtirish vositalaridan foydalanish.

Interfaol ta'lim texnologiyalari geografiya o'qitish jarayonini o'qituvchi va talaba, darslik, matn, turli didaktik materiallar bilan dialog tarzida o'quv materiallarini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta'lim jarayonida o'quvchiga suhbat asosida

yoki dialog tarzida ta'sir ko'rsatilib, o'quvchi shaxsi, intellektual va ijodiy qobiliyati, kelajakda o'z-o'zini rivojlantirish va shakllantirishiga sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov H., Mirzamahmudov O. Geografiya o'qitish metodikasi. Namangan. 2016.
2. Xasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent 2011.
3. Бердиев, Гайратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижонова Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 29-31.
4. Мелибоева, Феруза Солижонова, and Гайратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУҒОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." *Интернаука* 10-4 (2017): 31-34.
5. Мелибоева, Феруза Солижонова. "ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 34-36.
6. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." *Europaische Fachhochschule* 1 (2016): 3-6.
7. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." *Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана"*. Самарканд. 2013.
8. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." *Экономика и социум* 2-1 (93) (2022): 73-76.